



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlar bo'yicha prorektor:
S.N. Allayarova
2025 yil 14.01.25

PEDAGOGIKA FAKULTETI

"JISMONIY TARBIYA VA SPORT" KAFEDRASI

BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN
DAVLAT ATTESTATSIYA SINOVLARI
DASTURI



Denov – 2025

Ushbu dasturda 60112200 – Jismoniy madaniyat yo‘nalishi kunduzgi ta‘lim shakli bitiruvchi talabalari uchun mutaxassislik fanlaridan yakuniy attestatsiya o‘tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va adabiyotlar hamda elektron ta‘lim resurslari ro‘yxati keltirilgan.

Tuzuvchi:

D.Nosirova – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasini mudiri

Taqrizchilar:

Alimov Q.A. – Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Maxmudov Sh.K. – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika va Psixologiya kafedrasini dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Mazkur dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasining 2025-yil «25» 01-dagi 6-sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.


Kafedra mudiri:



D.Nosirova

Mazkur dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti kengashining 2025-yil «27» 01-dagi 9-sonli majlisida muhokamadan o‘tkazilgan.

Fakultet dekani:



Sh. Mahmudov

Mazkur dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil «28» 01-dagi 5-sonli majlisida tasdiqlangan.

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i:



B. Primqulov

60112200 – Jismoniy madaniyat yo‘nalishi kunduzgi ta‘lim shakli bitiruvchi talabalari uchun Yakuniy davlat attestatsiyalari o‘tkaziladigan fanlarning mazmuni, maqsad va vazifalari hamda davlat attestatsiyasi sinovlarining asosiy mazmuni

60112200-Jismoniy madaniyat yo‘nalishi malaka talabi asosida kunduzgi ta‘lim shakli uchun tasdiqlangan o‘quv rejaga asosan quyidagi mutaxassislik fanlariga ko‘proq kredit ajratilgan:

1. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi (8 kredit)
2. Sport mahoratini oshirish (7 kredit)
3. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (12 kredit)
4. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi (9 kredit)

Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi fani doirasida

Fanni o‘qitishdan maqsad - Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda gimnastika fani bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarni shakllantirish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida gimnastika vositalaridan samarali foydalanib o‘qitish va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir. Ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘qitishning interfaol uslublaridan foydalangan holda nazariy bilim beriladi, amaliy mashg‘ulotlarda esa, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarida talabalar egallagan bilimlarini amalda bajarib, ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi.

«Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- gimnastika va uni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari; gimnastika taraqqiyotining tarixiy tavsifi; O‘zbekiston jismoniy tarbiya tizimida gimnastikaning o‘rni; gimnastikaga oid atamalar; maktabgacha ta‘lim muassasalari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish; gimnastika mashg‘ulotlarida shikastlanishning oldini olish; gimnastika bo‘yicha o‘quv-mashq ishlarining hisobi va rejasini tuzish; saf mashqlarini o‘rgatish; umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni o‘rgatish haqida bilimga ega bo‘lishi kerak.

- yuklamani ko‘chirish (olib o‘tish). Tirmashib chiqish. Muvozanat saqlash, oddiy sakrashlar. Erkin mashqlar, akrobatika. Ommaviy gimnastik chiqishlar uchun mashqlar. Dastakli ot, halqalar, tayanib sakrashlar, bruslar. Baland va past turnik. Baland-past bruslar, xoda. Gimnastika bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish. Gimnastika musobaqalarida hakamlik qilish. Gimnastika bo‘yicha o‘quv musobaqalari. Gimnastika va sport-mashqlari asosi. Gimnastik chiqishlar va bayramlar. Professional ta‘lim muassasalari dasturi va «Alpomish», «Barchinoy» majmuasiga kiruvchi gimnastik materiallarni tahlil qilish. Gimnastika bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlar metodikasi haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

- gimnastika bo‘yicha sport inshootlari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot. Sport

inshootlari klassifikatsiyasi; sport inshootlarini shakllantirish; sport inshootining funksional-texnik chizmasi; sport inshootlari qurilishini loyihalashtirishni tashkil etishning asosiy qoidalari; sport inshootlari ishini rejalashtirish; sport maydonchalarining materiallari va tuzilmasi (konstruksiya), sport inshootlari va ularni jihozlash; bolalar sporti anjomlari haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.

- musiqaviy – ritmik tarbiya kursining maqsadi, vazifalari va uning ahamiyati; badiiy gimnastika va musiqaviy ritmik tarbiyaning bog'liqligi; jismoniy madaniyat darslarida musiqaning roli va ta'sirchanligi haqida bilimga ega bo'lishi kerak.

- shug'ullanuvchilarni yoshiga ko'ra musiqa ritmlarini tanlash printsiplari; maktabda musiqa ijrosida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining turlari; maktab dasturida badiiy va ritmik gimnastikaning mazmuni va vazifalari; jismoniy madaniyat darslarida ritmik gimnastika majmuasidan foydalanish; ritmik gimnastika majmuasi tuzilmasini ishlab chiqish; ritmik gimnastika musiqasi va mashqlarni musiqa mazmuni bilan bog'lash; musiqiy asarlar mazmuni to'g'risida tushunchalar haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

- musiqa melodiylari majmuasini registr, ritm, harakat qirralari, musiqa hajmi, tempi bilan bog'lash; namuna (maxsus) majmualarni, vazifalarni bajarish, harakat va musiqani bog'lay olish; musiqa jo'rligida hamda sanash orqali saf va umumrivojlantirish mashqlarini o'tkazish; darslarda ijroga ruxsat berilgan zahoti texnik vositalarni (magnitofon, plastinkali radiokuna) ishlata olish metodikasi bilan tanishtirish; majmua xarakteriga mos musiqa asarlarini tanlash malakasini takomillashtirish haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.

Sport mahoratini oshirish fani doirasida

Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarda sportchilar mahoratini bosqichma-bosqich va uzluksiz rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy usullari bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, sport mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, sportchilarni texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarligini mukammal rivojlantirish, ularning sport formasini saqlash va maksimal darajada oshirish metodikalarini puxta egallashga erishishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish orqali talaba Sport mahorati tushunchasi, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, sportchilik faoliyatining qonuniyatlari va tamoyillari haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'lishi;

Sportchilar tayyorgarligining turlari (jismoniy, texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlik) va ularning o'zaro bog'liqligi hamda rivojlantirish usullarini bilishi;

Yuqori sport natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish, rejalashtirish va tashkil qilish ko'nikmalarini egallashi;

Sport mashg'ulotlarini davrlashtirish (makrotsikl, mezotsikl, mikrotsikl) va ularning o'ziga xos xususiyatlarini amaliyotda to'g'ri qo'llash malakasiga ega bo'lishi;

Individual va guruh mashg'ulotlarini boshqarish, sportchilarning o'ziga xos imkoniyatlarini inobatga olib, shaxsiy reja va dasturlar tuzatish;

Sportchilar salomatligini saqlash va ularning reabilitatsiyasini ta'minlash tamoyillarini bilishi;

Sport turlariga xos texnik va taktik tayyorgarlik elementlarini chuqur o'rganib, amaliy mashg'ulot jarayonida qo'llay bilishi;

Musobaqaga tayyorlash va musobaqa faoliyatini boshqarish, musobaqa oldi va musobaqadan keyingi restavratsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil eta olishi;

Sport psixologiyasi asoslarini va sportchilarda motivatsiya, stressga qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantirish metodlarini bilishi kerak;

- til va nutq, bolalar nutqining o'ziga xosligi, maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini rivojlantirishda leksikaviy grammatik, fonetik va bog'lanishli nutqni rivojlantirish xususiyatlari va qonuniyatlari, nutq va ona tiliga o'rgatish, turli yosh guruhlarda bolalar nutqini har tomonlama o'stirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, kitob bilan ishlash metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlarni anglashga o'rgatish, bolalar nutqidagi kamchiliklar, ularni tuzatish yo'llari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;

Sport mahorati shakllanish qonuniyatlari va rivojlanish bosqichlari, Sport tayyorgarligining asosiy turlari va ularning o'zaro aloqasi, Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni nazorat qilish usullari, Sport mashg'ulotlarini tizimli rejalashtirish va davrlashtirish, Sport mashg'ulotlarining hajm va intensivlik parametrlari. Yuqori sport natijalariga erishish va ularni saqlash metodikasi Sportchilarda musobaqa tayyorgarligi va motivatsiyani oshirish, Mashg'ulot va musobaqa faoliyati monitoringi va baholash usullari malakalariga ega bo'lishi kerak.

Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni sport o'yinlari va harakatli o'yinlarning nazariy asoslari, o'qitish metodlari va texnologiyalari, o'yin faoliyatini pedagogik jihatdan tashkil etish tamoyillari, bolalar, o'smirlar va kattalarda sport va harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilishdan iborat.

Fanning asosiy maqsadi shuningdek, sport va harakatli o'yinlarning tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish, o'quv mashg'ulotlarini to'g'ri loyihalash, o'yin texnikasi va taktikasi elementlarini o'rgatish, musobaqa faoliyatini tashkil etish va o'yin ishtirokchilarining motivatsiyasini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni shakllantirishdir.

Fanni o'zlashtirish orqali talaba Sport va harakatli o'yinlarning maqsadi, vazifalari va rivojlanish qonuniyatlari haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'lishi; Sport o'yinlarining (futbol, basketbol, voleybol va h.k.) va harakatli o'yinlarning asosiy texnik va taktika elementlari hamda ularni o'rgatish metodikasini puxta bilishi; Turli yoshdagi bolalarga va o'smirlarga harakatli va sport o'yinlarini o'rgatish uchun mos metodik yondashuvlarni tanlash va qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi; Harakatli va sport o'yinlari orqali jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, ephchilik, chidamlilik, moslashuvchanlik) ni rivojlantirish metodlarini to'g'ri qo'llay bilishi;

Mashg'ulotlarning didaktik printsiplari (tushunarlilik, ketma-ketlik, faoliyatning oshishi, mustahkamlash, uyg'unlik) asosida mashg'ulotlarni loyihalash va o'tkazish

malakalarini egallashi: Musobaqalarni tashkil etish, musobaqa qoidalarini tushuntirish va o'yin faoliyatini boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi; O'yinchilarning jamoaviy hamkorligini, o'zaro yordam va sport etikasi tamoyillarini shakllantirish usullarini bilishi; Mashg'ulot va musobaqa jarayonini nazorat qilish, tahlil qilish va baholash usullaridan samarali foydalana olishi; Sport va harakatli o'yinlarni sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini o'rganib, ularni amaliyotga tatbiq eta bilishi kerak;

Sport va harakatli o'yinlarning nazariy asoslari, O'yin texnikasi va taktikasining asosiy elementlari va ularni o'rgatish metodikasi, Sport va harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish, Yosh davriga mos o'yin mashg'ulotlarini tashkil qilish Sport va harakatli o'yinlarda sog'lom raqobat va jamoaviylikni rivojlantirish, Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish tamoyillari, O'yin jarayonini nazorat qilish va tahlil etish metodlari ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni yengil atletikaning nazariy asoslari, texnikasi, taktikasini va ularni o'rgatish metodikalarini chuqur o'rganishga yo'naltirish, har xil yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilarga yengil atletika mashqlarini to'g'ri o'rgatish, rivojlantirish va baholash metodikasini puxta egallashga erishishdan iborat. Fanning asosiy maqsadi shuningdek, yengil atletika mashqlari orqali jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, tezlik, epchillik, moslashuvchanlik) rivojlantirish va ularni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish, hamda yengil atletikani ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish va sport faoliyati vositasi sifatida samarali qo'llash malakasini shakllantirishdir.

Fanni o'zlashtirish orqali talaba - yengil atletika fanining predmeti, maqsad va vazifalari haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'lishi; Yugurish, sakrash, uloqtirish va yurish mashqlari texnikasi va ularni o'rgatish metodikasini puxta bilishi; Turli yoshdagi va jismoniy rivojlanish darajasidagi shaxslarga yengil atletika mashqlarini to'g'ri tanlash va o'rgatish metodikasiga ega bo'lishi; Yengil atletika mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich rejalashtirish va o'tkazish ko'nikmalarini egallashi; Mashqlarni o'rgatish jarayonida harakat ko'nikmalarini shakllantirish, to'g'ri bajarilishini ta'minlash va xatoliklarni tuzatish metodlarini bilishi; Yugurish tezligi, chidamlilik va texnik mahoratni rivojlantirish uchun samarali metodlar va uslublardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi; Mashg'ulot va musobaqa jarayonini tashkil qilish, sportchilarning yuklamasini nazorat qilish va baholash malakalariga ega bo'lishi; Yengil atletika vositalari yordamida sog'lomlashtiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarga erishish usullarini bilishi;

Musobaqalarni tashkil qilish va hakamlik qilish bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI UCHUN IJODIY IMTIHON NORMATIVLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.

60111200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha yakuniy nazorat davlat attestatsiyasi sinovlari ijodiy usulida tashkil etilib, quyidagicha baholanadi:

Gimnastika va uni o'qitish metodikasi fanidan Davlat attestatsiyasi sinovlari uchun me'yor talablari

№	Topshiriqlar	"A'LO" (90-100 ball)	"YAXSHI" (70-89 ball)	"QONIQARLI" (60-69 ball)	"QONIQARSIZ" (0-59 ball)
1	Brussda oldinga, orqaga siltanib qo'llarni bukib yelkada tayangan xolda oyoqlarni yuqoriga ko'tarib turish, oldinga umbaloq oshib oyoqlarni ochib o'tirish, siltanib sakrab tushish mashqi)	Mashq texnikasini toliq bajarganda	Mashq texnikasini bajarganda 1 ta xatoga yo'l qo'yilsa	Mashq texnikasini bajarganda 2 xatoga yo'l qo'yilsa	Mashqni texnikasini to'liq bajaraolmaganda
2	Parallel brustlarda qo'llarda bukilib-yozilib (erkaklar, marta)	25+ marta	23-20 marta	18-15 marta	14 va undan kam marta
3	Arqonga tirmashib chiqish 4 metr (erkaklar, soniya)	8 son va tezroq	9-11 son	12-14 son	15+ son
4	Turnikda tortilish (erkaklar, marta)	14+ marta	12-10 marta	8-6 marta	0-5 marta

Sport mahoratini oshirish fanidan
Davlat attestatsiyasi sinovlari uchun me'yor talablari

№	Topshiriqlar	"A'LO" (90-100 ball)	"YAXSHI" (70-89 ball)	"QONIQARLI" (60-69 ball)	"QONIQARSIZ" (0-59 ball)
1	Milliy kurash sportida hakamlarning harakatlarini ko'rsatib berish	Xatosiz	1 ta xato	2 ta xato	3 va undan ko'p xato
2	Disk uloqtirish texnikasini namoyish qilish	Texnikasini to'liq bajarganda	Texnika bajarilganda 1 ta xatoga yo'l qo'yilsa	Texnika bajarilganda 2 xatoga yo'l qo'yilsa	Mashqni texnika to'liq bajaraolmaganda
3	Basketbolda hakam ishoralarini ko'rsatib berish	Xatosiz	1 ta xato	2 ta xato	3 va undan ko'p xato
4	"Voleybol to'pini 3 metrlik radius ichida, bosh ustida havoda 1,5 metr balandlikda uzluksiz o'ynash."	50-45 marta	44-39 marta	38-34 marta	33-20 ball
5	Sport turida texnik element namoyishi (Yengil atletikada pastki startdan chiqish)	texnikasini to'liq bajarganda	Texnika bajarganda 1 ta xatoga yo'l qo'yilsa	Texnika bajarilganda 2 xatoga yo'l qo'yilsa	Mashqni texnika to'liq bajaraolmaganda

Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi Davlat attestatsiyasi
sinovlari uchun me'yor talablari

№	Topshiriqlar	"A'LO" (90-100 ball)	"YAXSHI" (70-89 ball)	"QONIQARLI" (60-69 ball)	"QONIQARSIZ" (0-59 ball)
1	Basketbol: Jarima to'pi (8 urinish, aniq to'plar soni)	5	4	3	0-3
2	Futbol: To'pni havoda ushlab turish (janglyor)	50+ marta	35-49 marta	20-34 marta	0-19 marta
3	Futbol: 11 metrlik jarima to'pi (5 ta urinish, aniq to'plar soni)	5	4	3	0-2
4	Voleybol: To'pni o'yinga kiritish (aniq joyga) (10 ta urinish, aniq zarbalar soni)	8-10	6-7	4-5	0-3
5	Gandbol: Darvozaga to'p otish aniqlik testi (10 ta urinish, aniq otishlar soni)	8-10	6-7	4-5	0-3

Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi fanidan Davlat attestatsiyasi sinovlari uchun me'yor talablari

№	Topshiriqlar	"A'LO" (90-100 ball)	"YAXSHI" (70-89 ball)	"QONIQARLI" (60-69 ball)	"QONIQARSIZ" (0-59 ball)
1	1000 metrga yugurish (daqqa)	3.20 va undan tez	3.21-3.50	3.51-4.20	4.21 va undan sekin
2	100 metrga sprint yugurish	≤ 12.0 sekund	12.1 – 13.0 sekund	13.1 – 14.5 sekund	14.6 va ko'p sekundlarda

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI ASOSIY MAZMUNI

60111200 – Jismoniy madaniyat bitiruvchi kurs talabasidan yakuniy davlat attestatsiyasidagi ishtiroki davomida quyidagi fanlar bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi;
2. Sport mahoratini oshirish;
3. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi;
4. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi.

Mazkur fanlar yo'nalishidagi topshiriqlar uchun me'yor talablari oldindan beriladi, biroq topshiriqlar aralashtirilib, savollar biletlari tayyorlanadi. Attestatsiya sinovi kuni talaba yaxlit tarzda o'zi tanlagan biletda ko'rsatilgan topshiriq asosida sinovdan o'tkaziladi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARINING O'TKAZILISH TARTIBI

600111200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha yakuniy nazorat davlat attestatsiyasi sinovlari amaliy normativlarni bajarish orqali tashkil etiladi. Ushbu tartib OTM kengashi qarori asosida institut rektori tomonidan tasdiqlanadi hamda yakuniy nazorat davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy ilgari talabalar e'tiboriga havola etiladi. Talabalar davlat attestatsiyasi sinovlari dasturi bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish shart-sharoitlari yaratiladi. Mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinoviga tegishli ta'lim dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvoffaqiyatli o'tgan talabalar ruxsat etiladi.

Yakuniy nazoratga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng, shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan o'ta olmagan talaba uch yil ichida

Uzrli sabablarga ko'ra yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kirishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalaridan norozi bo'lgan bitiruvchi talabalar ariza bilan murojaat qiladilar. Ularning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini o'tkazuvchi komissiya a'zolari shu ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor o'qituvchilari va boshqa sohaga tegishli yetakchi tashkilotlardan mutaxassislar jalb etiladi.

Apellyatsiya tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jarayonida qo'yilgan ballar (baho)dan norozi bo'gan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadir.

Agar berilgan normativlardan tushunmovchilik yoki xatolik aniqlansa, tezda o'sha vaqtda apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilinadi va komissiya tomonidan muammo bartaraf etiladi.

Shuning bilan birgalikda, berilgan topshiriqlardagi kamchiliklar komissiyaga tezda imkon qadar ma'lum qilinadi, ma'lum qilingan kamchiliklarni mas'ul mutaxassislar tomonidan tezda bartaraf etishni komissiya a'zolari amalga oshiradi.

Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

Murojaat mazmuni faqat o'zining balli (baho) haqida bo'lsa, qabul qilinadi, lekin boshqa holatlar haqida yozilgan shikoyatlar va arizalar qabul qilinmaydi.